

“TASDIQLAYMAN”

Chirchiq davlat pedagogika
universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim”
fakulteti dekani I.U.Tadjibayev

“ _____ ” _____ 2024y

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrası iqtidorli talabalarni (bo‘lajak
pedagoglarni) qo‘llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan**

“KELAJAK O‘QITUVCHISI” tanlovi

NIZOMI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
Kengashining __-yil ____dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma‘qullangan.*

CHIRCHIQ - 2024



**Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini
tomonidan tashkil etilgan**

“KELAJAK O‘QITUVCHISI” tanlovi

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur nizom talaba-yoshlar orasida kreativlikni, pedagogik mahoratni, shuningdek, talaba-yoshlarning darsdan bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan **“Kelajak o'qituvchisi”** tanlovi (keyingi o'rinlarda – tanlov) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2 *Tanlovning maqsadi va vazifalari:* tanlovning asosiy maqsadi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari orasida pedagogik amaliyot davomida innovatsion, zamonaviy metodlarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashdan iborat. Tanlov orqali talabalar o'z ijodiy fikrlash va pedagogik ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, kelajakdagi o'qituvchilik faoliyati uchun zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash bo'yicha amaliy tajriba orttiradi.

II. Tanlovga qatnashish shartlari:

2.1 Tanlovda boshlang'ich ta'lim yo'nalishining 2-3-bosqich talabalari ishtirok etishi mumkin.

2.2 Har bir ishtirokchi individual ravishda yoki jamoa shaklida qatnashishi mumkin.

2.3 Talabalar ushbu tanlovda ishtirok etish uchun o'zlarining pedagogik ta'lim darajalarini ko'rsatishi lozim.

2.4 Talabalar tanlovda qatnashish uchun ariza berish va kerakli hujjatlarni topshirish uchun **“Boshlang'ich ta'lim metodikasi”** kafedrasiga uchrashiladi.

III. Tanlov jarayoni

Tanlov ikki bosqichdan iborat bo'lib, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-bosqich: “Amaliyotda qo'llash”

2-bosqich: “Bevosita kuzatish”

3.1 Birinchi bosqich: “*Amaliyotda qo‘llash*” bosqichi - ushbu bosqichda talabalar oliy ta’lim muassasidagi darslari davomida o‘rgangan metodlarini maktab o‘quvchilariga qanday qo‘llayotganlarini ko‘rsatib berishlari kerak. Talabalar tomonidan bajarilgan dars jarayonidagi metodlarni aks ettiruvchi lavhalar, ya’ni rasm, video, taqdimot yoki word shaklida materiallar tayyorlanadi. Ushbu lavhalarda quyidagi jihatlar aks ettirilishi lozim:

- qo‘llangan metodning mazmuni va uni qo‘llash maqsadi;
- o‘quvchilarni jalb etish va faol ishtirok etishga undovchi usullar;
- metodning samaradorligi va dars natijalariga ta’siri;
- lavhalar va materiallar tanlov komissiyasiga taqdim etiladi va dastlabki tahlil o‘tkaziladi.

3.2 Ikkinchi bosqich: “*Bevosita kuzatish*” bosqichi - ushbu bosqichda universitetdan tanlov uchun komissiya a’zolari tuziladi va ular jarayonga tashrif buyuradi. Komissiya a’zolari talabalar tomonidan amalda qo‘llanilayotgan metodlarni kuzatadi va baholaydi. Talabalar o‘z dars jarayonida qo‘llagan metodlarning samaradorligini tushuntirib beradilar va o‘qituvchi kuzatgan metodning o‘quvchilar bilan muloqotga qanday ta’sir qilganini baholaydi.

IV. Baholash mezonlari

G‘oliblarni aniqlash jarayonida talabalar quyidagi mezonlarga asoslaniladi:

- *zamonaviy va innovatsion metodlardan foydalanish darajasi*: talabaning yangi va ijodiy metodlarni qanchalik samarali qo‘llay olishi;
- *darsga tayyorgarlik va metodlarni qo‘llash jarayoni*: dars jarayonida talaba o‘quvchilarni qanday jalb etgani va ularga qanchalik yaxshi o‘zlashtirgan metodlarni qo‘llashini ko‘rsatganligi;
- *amaliyotning samaradorligi*: talabaning amaliyot davomida erishgan natijalari va o‘quvchilarning darsga faol ishtirok etishi;
- *o‘quvchilarning faolligi va darsga qiziqishini oshirish qobiliyati*: talaba o‘z metodlari orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshira olishi va ular bilan samarali muloqot o‘rnata olishi.

V. G‘oliblarni aniqlash

Tanlovda g‘oliblar ishtirokchilar orasidagi ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi. Tanlov jarayonidagi barcha ishtirokchilarning lavhalari va kuzatuv natijalari baholanadi va eng ko‘p ovoz to‘plagan talabalar g‘olib deb topiladi.

G‘oliblar “*Kelajak o‘qituvchisi*” nomiga sazovor bo‘ladilar va ularga maxsus sertifikatlar, esdalik sovg‘alari topshiriladi.

VI. Boshqa shartlar

Tanlov davomida talabalar orasida axloqiy qoidalarga rioya qilish va tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratish.

Tanlov materiallari va hujjatlari talabalar tomonidan belgilangan muddat ichida taqdim etilishi lozim.

Tanlov natijalari oshkora tarzda e'lon qilinadi.

**Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası
tomonidan tashkil etilgan**

“KELAJAK O‘QITUVCHISI” tanlovining baholash

INDIKATORLARI

№	Baholash mezonlari	Ajratilgan ball
1	Zamonaviy va innovatsion metodlardan foydalanish darajasi <i>(talabaning yangi va ijodiy metodlarni qanchalik samarali qo‘llay olishi)</i>	25 ball
2	Darsga tayyorgarlik va metodlarni qo‘llash jarayoni <i>(dars jarayonida talaba o‘quvchilarni qanday jalb etgani va ularga qanchalik yaxshi o‘zlashtirgan metodlarni qo‘llashini ko‘rsatganligi)</i>	25 ball
3	Amaliyotning samaradorligi <i>(talabaning amaliyot davomida erishgan natijalari va o‘quvchilarning darsga faol ishtirok etishi)</i>	25 ball
4	O‘quvchilarning faolligi va darsga qiziqishini oshirish qobiliyati <i>(talaba o‘z metodlari orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshira olishi va ular bilan samarali muloqot o‘rnata olishi)</i>	25 ball
Jami		100 ball